

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI**

**2024-yil 16-aprel**

**Toshkent – 2024**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G.Norimova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

#### **Tahrir hay'ati:**

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,**

**O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

## O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDA ADABIY O'QISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY JIHATLARI

Okila Turakulova<sup>1</sup>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda ayrim metodik tavsiyalar, adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda matn bilan ishlashning amaliy jihatlari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *O'zbek tili, adabiy o'qish, matn, metod, matn xususiyatlari, o'qish, so'z boyligi, o'qib tushunish.*

**Annotation.** This article provides some methodological recommendations for developing literary reading skills in Uzbek language classes, practical aspects of working with text to develop literary reading skills.

**Key words:** *uzbek language, literary reading, text, method, text features, reading, vocabulary, reading comprehension.*

Til millat ko'zgusi, g'ururi, tafakkur manbaidir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Har bir millatning o'zligini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak, millat ruhini yo'qotmakdur", - deb ta'kidlaydi. [1,160].

Darhaqiqat, til har bir millatning, xalqning ma'naviyatini, madaniyatini ko'rsatuvchi ko'zgudir. 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmondan kelib chiqqan holda o'quvchilarga zamon talablariga mos ravishda o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlari to'g'risida bilim berish, bo'lg'usi fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga doir dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida mazkur fanni zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullari haqidagi nazariy bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash masalalari dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

O'quvchilarga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat

---

<sup>1</sup> Turakulova Okila Amirkulovna – *Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili ta'limi fakulteti dotsent, p.f.f.d (PhD)*

**Iqtibos uchun:** *Turakulova, O.A. (2024) O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 35-38 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/HXBU7220*

joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

O'zbek **tili** mashg'ulotlarida bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitida mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri ravon ifodalash, adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish:

- 1. So'z boyligini oshirish va boyitish
- 2. Mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish
- 3. Nutqiy mahoratni shakllantirish
- 4. Mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish.

Darsda amaliy faoliyatga qancha ko'p e'tibor berilsa, samaradorlik shuncha yuqori bo'ladi. Amaliylikni ta'minlash esa muammoli o'qitish usullaridan unumli foydalanishni, darsda qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va izlanuvchanlik metodlari orasida mutanosiblik bo'lishini, darslarni "Topqirlar bellashuvi", "Sirtqi sayohat", "Bahs -munozara", "Ertak" singari turli qiziqarli shakllarda tashkil etishni, ta'lim jarayonida didaktik o'yinlardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

O'quvchini ana shunday amaliy jarayonlarga kirita olish esa, nafaqat grammatika, balki o'qib tushunish, ya'ni adabiy o'qish jarayoni bilan ham uzviy bog'liqlikni tashkil qiladi.

Kitob o'qish ko'p insonlarga xos bo'lgan qiziqish orqali yuzaga keluvchi, bilim olishning eng samarali yo'li, ma'naviyat o'chog'idir. Umuman olganda o'qish bu alohida hodisa.

○ *Mazmunni (axborotni) yozma matndan olishga qaratilgan nutq faoliyatining turi - o'qish demakdir.*

○ *O'qish -matnni idrok qilish, uni tushunish va talqin qilishni o'z ichiga oladi va idrok darajasi o'quvchining o'qish tajribasi va adabiy saviyasi bilan belgilanadi.*

○ *O'qishning yuqori darajasi ijodiy his-tuyg'ular, yangi haqiqatni yaratish, muallif bilan muloqot qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.*

S.N.Plotnikov o'spirin yoshidagi bolalarda o'qishni rivojlantirish uchun quyidagi mezonlarni belgilaydi:

- - bolalarda kitobga qadriyatli munosabatni yaratish jarayoni;
- - o'qiganlariga hissiy munosabatda bo'lish qobiliyati;
- - badiiy matnni estetik jihatdan his qilish imkoniyatlari;
- - o'quvchilarda o'qish ehtiyojlarini shakllantirish. [3, 46-58].

Ma'lumki, Prezidentimizning 2017-yildagi adabiy o'qish jarayoniga bog'liq qarorlariga muvofiq ta'lim o'zga tilda olib boriluvchi maktablarda o'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi. Adabiy o'qishga ajratilgan soatlarda o'quvchining nutqi ravon bo'lishi, o'zbek adabiyoti bilan, shuningdek, o'zbek madaniyati, uning tildagi chinakam jozibasi bilan tanishtirish uchun imkoniyat yaratildi.

### **O'qish uchun matn tanlash muhim!**

O'qishga mo'ljallangan matn mazmuniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1) Matnning tarbiyaviy ahamiyati bo'lishi, til o'rgatish maqsadlaridan biri tarbiyalashdir, jamiyat axloq qoidalarini singdirish, ma'naviy (axloqiy) tarbiya berishga qaratilgan matnlar tanlanadi;

2) O'quvchining hayotiy bilimni oshirish, ya'ni dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan matnlar saralanadi.

3) O'qishga tavsiya etiladigan matnning mazmuni **ilmiy jihatdan sifatli**, ya'ni undagi ma'lumotlar voqelikni aks ettiradigan bo'lishi kerak. O'quvchiga qandaydir **faraziy yoki taxminiy** ma'lumotlarga asoslangan matnlar o'qitilmaydi.

4) Tanlanayotgan matn **o'quvchi yoshiga mos tushishi** talab etiladi. O'quvchi ehtiyojini qondirish kerak.

5) Matn mazmuni o'quvchining **ma'naviy saviyasiga muvofiq bo'lishi**, bilish va hissiy talablariga javob berishi kerak.

Yuqori sinflarga quyidagi matnlarni o'qish uchun tavsiya qilish mumkin:

- badiiy adabiyotdan saralangan matnlar;
- tengdoshlar, do'stlik, muhabbat haqida fikr uyg'otadigan muammoli matnlar;
- mazmunan jozibador (yumor, sarguzasht, detektiv, hazil, fantastik) matnlar;
- Tarixiy ma'lumotlar beradigan, kashfiyotlar va sayohatlarga oid "Bilasizmi...?" toifasidagi matnlar;
- Matn mazmuni boshqa o'quv predmetlarining materialini bevosita takrorlamasligi;

Matn bilan ishlashning uch bosqichi tadqiq qilingan:

Birinchi - matn oldi tayyorlov mashqlarida leksik grammatik material va o'qish texnikasi o'zlashtiriladi.

Ikkinchi - matnni o'qib tushunishga qaratilgan bo'lib, axborot olish va tushunganlikni tekshirish mashqlarini o'z ichiga oladi.

Matndan keyingi bosqichda uning leksikasi va axboroti asosida gapirish, o'stirish bo'yicha mashqlar o'tkaziladi.

Demak, adabiy o'qish jarayoni uchun matn xususiyatlari muhim sanaladi. Bugungi kunda darsliklarda mavjud matnlarni tahlil qilgan holda zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangi matnlar yaratish, o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan eng sara asarlardan namunalar berish ham muhim sanaladi. Jumladan, bugungi kunda bolalar adabiyotida samarali ijod qilib kelayotgan Sa'dullo Quronovning "Koinot javohiri" asaridan olinib, 7-sinf o'quvchilariga Grammatik mashqlar orqali taqdim qilingan ushbu parchada yuqoridagi fikrlarimiz isbotini dalilladik.

***"Ruzvelt xonasida" matni ustida ishlash.***

**Savol va topshiriq quyidagicha:**

- *Matn orqali anglagan kichik tushunchangizni ayting.*
- *Matnda ismlari keltirilgan qahramonlarni taniysizmi?..*

Eng samarali usullardan biri - bu "Muammoli vaziyat" metodi. Bunda, o'quvchilar berilgan matnni o'qiydilar, mulohaza qiladilar va undan hukm hamda xulosalar chiqaradilar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida o'quvchilarda badiiy matnni estetik jihatdan his qilish ko'nikmasi shakllanadi, o'qiganlariga hissiy munosabatda bo'lish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa, ijodiy yondashuvni, izlanuvchanlikni oshiradi.

#### **ADABIYOT:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni.

*Bo'ronova Sh.* "Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili darslarini tashkil etishning samarali usullari" (Metodik qo'llanma). 2009, 37 bet.

*Mirzayeva Z.* Badiiy asar tahlilida o'quvchi faolligini oshirish muammosi. Toshkent.: 2020.

*Musulmanova N.* Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiya va tadqiqot metodlari. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. Vol. 2 (5) (2023) <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/80>

## MUNDARIJA:

1	<b>Muhammedova S. Shirinova Y.</b> Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	<b>Kadirova X.B.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	<b>Iskandarova G.T.</b> O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	<b>Musulmanova N.</b> Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	<b>Isayeva Sh.</b> Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	<b>Do'smuradova Y.</b> Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	<b>Turakulova O.A.</b> O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	<b>Məmmədov X. Kadirova X.</b> X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	<b>Elova D.Q.</b> O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	<b>Abdulkhaimova O.</b> O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	<b>Xo'jayev N.</b> O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	<b>Aytniyazova N.</b> O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	<b>Nasirdinova O.</b> Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	<b>Khidoyatova D.A.</b> Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	<b>Davronov A.S.</b> O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	<b>Аликулова М.</b> Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	<b>Bazarova D.B.</b> Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	<b>Yo'ldosheva Y.A.</b> Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	<b>Beysenova A. Kadirova X.</b> Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	<b>Pardayeva M.Ch.</b> Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	<b>Shodmanov T.A.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	<b>Abduqodirova N.</b> Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112